

Ishga qabul qilish vaqtida ishga kirayotgan shaxs quyidagi hujjatlarni:

pasport yoki uning o'rnini bosadigan boshqa hujjatni, o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar esa, — tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma va turar joyidan ma'lumotnomani;

mehnat daftarchasini, birinchi marotaba ishga kirayotgan shaxslar bundan mustasno. O'rindoshlik asosida ishga kirayotgan shaxslar mehnat daftarchasi o'rniga asosiy ish joyidan olgan ma'lumotnomani;

harbiy xizmatga majburlar yoki chaqiriluvchilar tegishincha harbiy biletni yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnomani;

oliy o'quv yurtini tamomlaganligi to'g'risidagi diplomni;

soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR);

jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqami to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etishi kerak.